



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 5-sentabr

442-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahallalardagi xotin-qizlar faollarini qo‘llab-quvvatlash hamda “Oqila ayollar” harakati a‘zolarini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-avgustdagi 527-son qarori ijrosi haqida”gi 409-6-0-Q/24-son qarori to‘g‘risida

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahallalardagi xotin-qizlar faollarini qo‘llab-quvvatlash hamda “Oqila ayollar” harakati a‘zolarini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-avgustdagi 527-son qarori ijrosi haqida”gi 409-6-0-Q/24-son qarori ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahallalardagi xotin-qizlar faollarini qo‘llab quvvatlash hamda “Oqila ayollar” harakati a‘zolarini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-avgustdagi 527-son qarori ijrosi haqida”gi 409-6-0-Q/24-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi) hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining 2024-yil 1-sentabrdan boshlab quyidagilarni joriy etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilganligi:

a) “Oqila ayollar” harakatining faol va tashabbuskor a‘zolarini Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi hamda «Ma‘rifat» targ‘ibotchilar jamiyatiga ajratilgan mablag‘lar hisobidan har olti oy (yarim yillik) yakuniga ko‘ra mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining bir baravari miqdorida rag‘batlantirish, bunda:

respublika, hududiy va tuman (shahar)lardagi “Oqila ayollar” harakati faoliyatining natijalarini Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari yig‘ilishlarida har olti oyda (yarim yillikda) bir marotaba muhokama qilib, faoliyat samaradorligi natijalariga ko‘ra yuqori ko‘rsatkichga erishgan “Oqila ayollar” harakatining eng faol va tashabbuskor a‘zolari aniqlanishi;

“Oqila ayollar” harakatining eng faol va tashabbuskor a‘zolari (respublika darajasida 10 nafar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar darajasida 3 nafardan, tuman (shahar)lar darajasida 2 nafardan) rag‘batlantirilishi;

b) mahalladagi xotin-qizlar faollari ishining samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash natijalariga asosan Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi mablag‘lari, homiylik xayriyalari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan har olti oy (yarim yillik) yakuni bo‘yicha eng

yuqori natijalarga erishgan 300 nafar xotin-qizlar faollarini mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining bir baravari miqdorida rag'batlantirish; bunda

eng yuqori natijalarga erishgan xotin-qizlar faollarini rag'batlantirish tartibi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan belgilanishi;

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tizimidagi xodimlar malakasini oshirishni tashkil etishni ta'minlovchi elektron modulni ishlab chiqishi;

belgilanishicha, elektron modulni ishlab chiqish bilan bog'liq xarajatlar Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasiga ajratilgan mablag'lar doirasida moliyalashtirilishi;

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan Oila va xotin-qizlar qo'mitasi bilan birgalikda jamoatchilik nazorati doirasida davlat organlari va tashkilotlarida uch yillik reja asosida genderga oid audit o'tkazilishi inobatga olinganligi, bunda:

gender audit o'tkazishning natijalariga ko'ra xodimlari sonining 30 foizi xotin-qizlardan iborat bo'lgan hamda markaziy apparat rahbari yoki uning o'rinbosarlaridan biri ayol bo'lgan davlat tashkilotlari ro'yxatini shakllantirish va ularni qo'shimcha rag'batlantirish, ommaviy axborot vositalari orqali e'tirof etish choralari ko'rilishi;

davlat xizmatlarini ko'rsatish, ta'lim, ilm-fan, sport hamda sog'liqni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratilishi; xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar yetarli darajada ta'minlanmagan vazirlik va idoralar, korxonalar va tashkilotlarda genderga doir kompleks yondashuvni bosqichma-bosqich joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi; aniqlangan muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar har yarim yilda Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasiga kiritib borilishi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i F.Egamberdiyeva, mahalla fuqarolar yig'inlaridagi oila va xotin-qizlar faollari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahallalardagi xotin-qizlar faollarini qo'llab-quvvatlash hamda “Oqila ayollar” harakati a'zolarini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2024-yil 24-avgustdagi 527-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i F.Egamberdiyeva zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov